

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLAIRDА MODALLIK KATEGORIYASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nazirqulova Dilrabo Zafariddin qizi,  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Annotatsiya. Modallik kategoriyasining tilshunoslik sohasidagi ko'lami anchagini keng va hozirgi kunda lingvist olimlar tomonidan dolzarb tadqiqot sohalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Modallik kategoriyasi so'zlovchining gapirilayotgan gap mazmuniga, real borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalaydigan tushuncha sifatida baholanadi. Kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladigan ushbu kategoriya aynan bir sohadagina cheklanib qolmay, tilshunoslikning leksikologiya, frazeologiya, so'z yasalishi, morfologiya va matn lingvistikasi kabi bir qator bo'limlarda keng qo'llaniladi va o'z ahamiyatiga ega. Modal kategoriyaning keng imkoniyatlarga boyligi uning universal tushuncha sifatida namoyon bo'lishiga asos bo'ladi va til tuzilishining tub mohiyatini tushunishda, izohlashda ahamiyatga molikligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining Ingliz va O'zbek tillaridagi lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi, izohlanadi.*

*Kalit so'zlar: modallik, kategoriya, lingvopragmatik, tilshunoslik, obyektiv, subyektiv, modal so'z.*

## THE LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE CATEGORY OF MODALITY IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Nazirqulova Dilrabo Zafariddin qizi,  
*The independent researcher of Uzbekistan state world languages university*

*Abstract. The scope of the category of modality is wide enough in linguistics and it is considered as the most interesting field of research among linguists. The category of modality is evaluated as a concept that expresses the attitude of the speaker to the content of the spoken sentence, to the reality. This category, which serves as an integral part of communication, is not limited to just one field, but is widely used and has its importance in a number of branches of linguistics, such as lexicology, phraseology, word formation, morphology and text linguistics. The wealth of wide possibilities of the modal category is the basis for its manifestation as a universal concept, and it is distinguished by its importance in understanding and interpreting the fundamental nature of the language structure. In this article, the linguo-pragmatic features of the modality category in English and Uzbek languages are analyzed and explained.*

*Key words: category, modality, linguistics, attitude, objective, subjective, lingvopragmatic features, English , language.*

## ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАТЕГОРИЯ МОДАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Назиркулова Дилрабо Зафариддин кизи,  
*Независимый исследователь в Узбекистанский государственный  
университет мировых языков*

*Аннотация. Эта статья посвящена чтобы исследовать область применения категории модальности в области лингвистики достаточно широка, и в настоящее время она рассматривается лингвистами как одна из актуальных областей исследования. Категория модальности оценивается как понятие, выражающее отношение говорящего к содержанию произнесенного предложения,*

*креальному существованию. Эта категория, выступающая неотъемлемой частью общения, не ограничивается какой-то одной областью, а широко используется и имеет свое значение в ряде разделов языкоznания, таких как лексикология, фразеология, словообразование, морфология и лингвистика текста. Богатство широких возможностей модальной категории является основой ее проявления как универсального понятия и отличается своей значимостью в понимании и интерпретации фундаментальной природы языковой структуры. В данной статье анализируются и объясняются лингвопрагматические особенности категории модальности в английском и узбекском языках.*

**Ключевые слова:** модальность, объективность, субъективность, категория, лингвистика, лингвопрагматические особенности.

Kirish. Hozirgi kunda ijtimoiy jamiyat insoniyat, uning qiziqishlari, munosabatlari ustiga qurilgan ekan, ana shu jamiyatning rivojida insonlar orasidagi to'g'ri yo'naltirilgan, maqsadli muloqot muhim, birlamchi faktorlardan hisoblanadi. Muloqot esa o'z navbatida til bilan chambarchars bog'liqlikka ega. Jamiyatda mushtaraklikka, o'zro tushunishga erishilish uchun tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanish va uni o'rinni qo'llash talab qilinadi. Tilni to'g'ri va o'rinni namoyon qilish tilshunoslik fanining boshqa sohalar orasida jadal o'sishiga rivojlanishiga olib keldi, va hozirgi kunda qator tilshunos olimlar tilshunoslikning u yoki bu sohasida tadqiqotlar olib borib, jamiyatimizdagagi tilning o'rnnini yanada yuksaltirib, uning keng imkoniyatlarini ochib kelishmoqda.

Modallik kategoriyasi-juda keng qamrovli va murakkab tushuncha. Modallik haqidagi dastlabki fikrlar Aristotelga tegishli deb qaraladi. Falsafa fani sohasida qo'llanilgan va borliqning, bizni qamrab turgan jamiyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan modallik tushunchasining ichiga kirgan sari, uning yangi qirralari ochilgani sari, tilshunoslik sohasida ham muhim bir kategoriya sifatida tan olindi. Tilda modallik kategoriyasining o'rni davrlar o'tishi bilan, vaqt o'tgan sayin takomillashib bormoqda, va ushbu "Modallik" atamasi bizni o'rab turgan borliq, voqeа-hodisalar, voqeliklar ketma-ketligini anglatish uchun qo'llanilib, tilda o'zining ma'nolari, grammatik xususiyatlari va til sathida turlicha ko'rinishga, holatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Tilshunoslik fanida modallik kategoriyasi so'zlovchining gap mazmuniga, yuz berayotgan voqelikka munosabatini anglatuvchi kategoriya sifatida qaraladi va bunda asosiy faktor sifatida biror bir nutqda, muloqotda so'zlovchining shu voqelikka, yoki aynan gapirilayotgan gapining mazmuniga, maqsadiga bo'lgan munosabati olinadi. Tahlil qilingan materiallar asosida, modallikni ifodalaydigan vositalarga mayl, zamon, shaxs-son qoshimchalarining alohida qurilmalari, yuklamalar, intonatsiya, so'z tartibi, undalmalar, kirish so'z va gaplar kabi bir qator grammatik qurilmalarni kiritishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Modallik kategoriyasining adabiyotlar tahliliga nazar tashlar ekanmiz, ushbu soha yevropa, rus va o'zbek olimlarining e'tiborini birdek tortganini, ularning ushbu sohada olib borgan qator ishlaridan, bildirilgan fikrlaridan anglash qiyin emas. "Modallik(lotincha modalis-o'lchov, usul)-fikrning voqelikka bo'lgan munosabatlarining turli xil ko'rinishlarini, shuningdek bildirilayotgan narsalarni subyektiv tarzda tasniflashning turlicha ko'rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya" (O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 6 том, 2000, 38-b). Modallikning O'zbekiston milliy entskilopediyasida berilgan yuqoridaq ta'rifini yana bir qo'shimcha izohlar bilan yanada to'liqroq va tushunarliroq qilib ifodalash mumkin. Modallik kategoriyasini tilda qo'llanilishi, so'zlovchining maqsad, munosabatiga ko'ra obyektiv va subyektiv modallikka ajratishimiz mumkin."Obyektiv modallik bildirilayotgan

fikrning vogelikka munosabati(real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi) ni anglatadi hamda grammatic va leksik vositalar(mayl, modal so'z, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa, so'zlovchining aytيلayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho) ga munosabatini ko'rsatadi vaso'z tartibi, leksik takror, intonatsiya, modal so'z, yuklama, kirish so'z, undov so'z, so'z birikmasi bilan ifodalanadi" (O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 6 tom, 2000, 42-b)

Tilshunoslik ilmida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlardan biri Sh. Balli modallik kategoriyasi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Modallik-gapning qalbi, yuragidir.U fe'llar, mayllar, intonatsiya, savol va buyruq shakllari: modal harakat(ishora), undov so'zlar, atash va ko'p sonli usullar bilan ifodalanadi" (Sh.Balli, Yazik i zjizn', Moskva, 2003). Yana bir chet el tilshunos olimi Xellidey modallik haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Modallik-muloqotning muhim funksional xususiyati, shaxs oraisdagi funksiya, muloqotda qatnashayotgan so'zlovchining ifoda shakli hisoblanadi"(Xellidey M.K., Tilda tizim va funksiyalar: tanlangan asarlar, London, 1976, 197-b) T.I.Krasnovanining modallik haqidagi fikrlariga nazar solsak, quyidagi fikrlarga guvoh bo'lishimiz mumkin: "Obyektiv va subyektiv modallik kategoriyalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq va ularni bir-biridan faqat nazariy yondashishorqali ajratish mumkin "(Krasnova T.I, 2002,189), "Tilda modallik kategoriyasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi fikr bildirilgan va uning tildagi alohida ma'nolarining rang-barang tabiatichalik ko'p talqin qilingan kategoriya yo'q" deb ta'kidlovchi olim V.V. Panfilov ham o'zining modallik haqidagi qarashlari va tushunchalari bilan tilshunoslikning ushbu kategoriyasi rivojida kattagina hissa qo'shgan desak mubolag'a qilmaymiz. F.Bryuno tilshunoslikda "ma'nodan shaklga" tamoyiliga asoslanib, istak, taxmin, ishonch, iltimos inkor kabi modal tushunchalarning qanday yo'llar bilan ifodalanganini tadqiq qilib, modallikni ikki sinfga ajratgan: real va eventual(taxmin). F Bryuno fikricha, "Modallik kategoriyasini ifodalovchi vositalarga ohang(iltimos,nafrat, tasdiq, ajablanish, xursand bo'lism, zaruriyat, rad etish, ruxsat etish, va h.k), zamon(modal fe'llar, modal to'ldiruvchilar: ravish, ravishli ibora, ko'makchilar, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplar) so'z tartibi va fe'l mayllari kiradi"(Brunot. F.1965, 982b)

O'zbek tilshunoslik sohasida ham bir qator olimlar allaqachon ushbu modallik kategoriyasi to'grisida bir qancha materiallar tayyorlab ulgurishgan, shulardan misol qilib, S.O'. Boymirzayeva o'zbek tili materiali asosida matn modalligi muammosini o'rganib tahlil qilganligini keltirishimiz mumkin. Olima o'z ishida modallik kategoriyasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini, matnning kognitiv va ma'noviy maydonida faollashuvchi ko'rsatkichlarni aniqlaydi.Matn modalligini mazmuniy turlarini farqlash, ularni tasniflashga harakat qiladi. Bundan tashqari S.O'. Boymirzayeva matn modalligini tahlil qilish davomida asosiy e'tiborni subyektiv modallik turlarining matnda voqelanishiga qaratadi: ".....subyektiv modallik quyidagi turlarga bo'linadi: emotiv, epistemik, deontik va aksiologik"(Boymirzayeva S, 2010, 152b). J.A.Yoqubov o'zining tadqiqotida mantiq va tilshunoslikni o'zaro bog'lab, modallik kategoriyasining semantik xususiyatlarini ochib berihsga e'tibor qaratgan. U tilshunoslikda mavjud bo'lgan ilmiy ishlarni tahlil qilib, olimlarning nazariy qarashlarini bir tizimga solgan. "Modallik kategoriyasi deb, qator funksional-semantik modallik kategoriyalarining(tasdiq, inkor, real-noreal, so'roq, undov, payt, sabab-maqsad,qiyos, shart, niyat, buyruq, natija,to'siqsiz, o'rin, inkor, tasdiq, mavjudlik,holat, maslahat, iltimos, talab, mumkinlik va hokazo) shakllanib, rivojlanib, turli xil ma'no nozikliklariga qo'shilib, uyg'unlashib, keng funksional-semantik maydonni hosil qilish jarayonida so'zlovchining obyektiv borliqqa munosabatini anglatib, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ muloqotning amalga oshishida ifodalanayotgan semantic ma'nolar majmuiga aytildi" (Yoqubov

J.A, Toshkent, 2007) O.S.Axmanovaning fikrlariga ko'ra, modallik "so'zlovchining gap mazmuniga munosabati va gap mazmunining voqelikka munosabati ma'nosiga ega bo'lgan, fe'llarning shakl va mayl, modal kabi turli leksik – grammatic va boshqa vositalar bilan ifodalangan konseptual kategoriya" (Axmanova O.S,2010). Modallik kategoriyasini turli tillarda tasnif qilish, o'rganish, ularni baholash bizga o'z-o'zidan tillarga xos bo'lgan lingvomadaniy xususiyatlarni ham ochib berishni, aynan shu til kategoriysi biror tilning ichki til xususiyatlari va lingvomadaniy xususiyatlarini tasvirlashda ahamiyatga egaligini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak. "Modallik kategoriyasini qiyosiy aspektida o'rganish, ya'ni turli tizimli tillarni chog'ishtirib tahlil qilish jarayonida ularning o'xhash va farqli xususiyatlarini ochib berishda, dunyo manzarasining o'ziga xos ichki til xususiyati va milliy til xususiyatini tasvirlashda katta yordam beradi"(Jo'rayeva M.M, 2017)

Modallik kategoriyasining tilda, nutqda namoyon bo'lishing keng qamrovli va murakkab jarayonligiga e'tibor qaratsak, uning universal tushuncha ekanligiga va har bir dunyo tillarida o'zining ma'no nozikliklari hamda namoyon bo'lish uslublarining o'ziga xosligiga guvoh bo'lamiz.

Natijalar. Modallik haqida keltirilgan fikrlar,mulohazalardan ma'lumki, ushbu til kategoriyasining,nutqda , kommunikatsiyada ishtiroki turli til birliklari bilan ifodalanadi. Bu til birliklariga yuqorida aytib o'tilganidek, turli kirish so'zlar, yuklamalar, modal ma'noli so'zlar, modal fe'llar, ravishli iboralar, va hattoki so'z tartibi hamda intonatsiyani ham kiritishimiz mumkin. Modallik kategoriysi haqida gap ketganda uning obyektiva subyektivturlargabo'linishinitavsiflamasdanilojyo'q.Obyektivmodallik-bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabatini (real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik,zaruriyat va ehtimollistikni) anglatadi. Obyektiv modallikni ifodalovchi vositalarga biz tildagi mayl, modal so;z, yuklama, intonatsiyani kiritishimiz mumkin. Subyektiv modallikk-so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabati (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho) ni ifodalaydi. Ushbu modallik turining ifodalanishida intonatsiya, leksik takror, modal so'z,yuklama, undov, kirish so'z, so'z birikmasi, va kirish gaplar faol ishtirok etadi. Har qanday jumlanı predikativlik xususiyatisiz anglash, tasavvur qilish qiyin. Shu jumladan modallik xususiyati ishtirok etgan mavjud bo'lgan fikr-jumllalarda ham prdikativlik munosabati sihtirot etadi. Olimlar ushbu predikativlik munosabatini ikki pog'onadan iborat deb qarashgan va uni denotat(diktum) va modusga farqlashgan. Bunda diktumga subyekt-predikat munosabatini aks ettiruvchi omil sifatida qaralsa, modus esa ushbu monasabatga so'zlovchining munosabatini aks ettiradi deb qaraladi. Shu jihatdan, obyektiv modallikni dioktumga kiritishimiz, subyektiv modallikni esa modusga tegishli deb qarashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tilida modallik kategoriysi kirish so'z, modal ma'noli so'zlar bilan ifodalanishini ta'kidlab o'tganda, ularni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

Gapdan aglashilgan ma'noning aniqligi, konkretligiga bo'lgan munosabatni bildiruvchi modal so'zlar: albatta, shaksiz, shubhasiz, so'zsiz,haqiqatdan ,darhaqiqat, ishonchim komilki, shunisi aniqki, chindan ham, va b.q

"-Albatta bu gaplar hozir sizga juda g'ayritabiyy tuyuladi. Ammo o'ttizinchi yillarning oxiridagio ba'zi gazetalarni varaqlab ko'ring" (O.Yoqubov,Dyonat")

".....-Albatta-da! Abduvalining o'g'il ukasi borligi uchun maqtanadi. Mengayam o'g'il uka kerak"....(O'. Hoshimov, "Ikki ishik orasi")

"....Chindan ham ularning kelushi, keluvidan ham burun arava ustida turib olib, qiv-qivlab qichqiruvlari bir g;alati edi "(Murod Mansur, "Judolik diyori")

"Darhaqiqat, domla nima uchun yashiradi? Qo'mita a'zolaridan ba'zilari "Saidiyni umumiy qoidadan mustasno qilib bo'lmaydi" dder ekan, ular uchun Saidiy qoidadan

mustasno bo'lmaydi.

“Rostdan ham, Saidiy keyingi kunlarda ancha tiyildi, endi ilgari taqdim qilgan yuzta loyihadan ko'ra, hozir chin ko'ngilda ishlab turgan bir mas'ul ishchini masxara qilishni, obro'yini to'kishni.....foydaliroq ko'rар edi.”(A.Qahhor, “Sarob”)

Yuqorida berilgan misollar orqali so'zlovchining gapga bo'lgan tasdiq, aniqlik munosabatlarini namoyon qilishda ifodalanganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.Ingliz tilida xuddi shunday ma'noni ifodalovchi vositalarga, certainly, of course, exactly, definitely kabi bir qator leksik vositalarni kiritishimiz mumkin:

“...Definitely, Isaac turned and ran up the stairs taking them two at time.”(J.Green , “The fault in our stars”)

“I sagaciously observed, if it didn't signify to him, to whom did it signify?” “-Certainly!,” assented Joe. “That's it. You are right, old chap!” (Ch. Dickens, “Great expectations”)

“Of course, there was a public- house in the village, and of course Joe liked sometimes to smoke his pipe there” (Ch. Dickens, “Great expectations”)

“Most marshes is solitary” said Joe.

“No doubt, no doubt. Do you find any gypsies, now, or tramps, or vagrants of any sort, out there?”( Ch. Dickens, “Great expectations”)

Noaniqlikni, ma'noni taxmin qilishni, so'lovchining gapdan anglashilayotgan fikrga ehtimollik, shubha taxmin kabi ma'nolarni namoyon qiluvchi modal birliklarga o'zbek tilidagi ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli, balki kabi kirish so'zlarni kiritishimiz mumkin boladi:

“-O'sha bog'laringizning pastida bir mozormi, qayrag'ochzormi bor-ku, balki o'sha yerdadir?”-deb taxminladim.

“-Balki, lekin u kitoblar Yakkabog'dan chiqib ketmagan.” (M. Mansur, “Judolik diyori”)

Bobom aytadi: ona yurt qo'shig'i uchun odamlar jonini beradi. Qanday odamlar ekan-a, bir ko'rsang ularni. Ehtimol katta shaharlarda yashashar?”

“.....Bobom odamlar bilan ko'rishishni juda yaxshi ko'radi. Bu odatni men undan o'rgandim. Ehtimol vaqt kelib bir kun yaylovdha haqiqiy avliyo bilan uchrashib qolarman....”(Ch. Aytmatov, “Oq kema”)

“U, ehtimol, kutaverib charchagan va endi ko'zini uzmay, otda yo'rtib kelayotgan bobom do'nglikda ko'rinish qolmasmikin deb, bezovtalani turgandir.” (Ch. Aytmatov, “Oq kema”)

“Aftidan, tezroq qaytsak, muzqaymoqlarga ham ulguramiz, demoqchi, Men esam tamoman boshqa xayoldaman..” (M.Mansur, “Judolik diyori”)

Ingliz tilida shu ma'noda qo'llanilgan jumlalar ifodasiga e'tibor qaratsak, quyidagilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin: I suppose, perhaps, I'm afraid, I fear, Maybe, probably and so on.

“I suppose, there's nothing to be done,” exclaimed Camilla, “but comply and depart. It's something to have seen the object of one's love and duty for even so short a time”

“Perhaps I might have told Joe about the pale young gentleman, if I had not previously been betrayed into those enormous inventions to which I had confessed ” (Ch. Dickens, “Great expectations”)

-I'm afraid, he is not in here at the moment. Ushbu berilgan misollarda qo'llanilgan modal m'anoli birikmalar, so'zlar so'zlovchining bildirilayotgan fikrga nisbatan taxmin, gumon, ishonchsizlik munosabatlarini ifodalamoqda

Modallikni anglatuvchi ma'nolarning keying turiga o'zbek tilida keng qo'llaniladigan, nihoyat,ajabo, afsuski, nahotki, hayriyat, attang, axiyri, qarangki, ne ajabki,kabi bir qator xursandchilik, hayrat, afsuslanish ma'nolarini ifodalab keluvchi kirish so'zlarni

kiritishimiz mumkin.

“Qaraki, shu voqeadan qancha o’tib, u kishining dushmanlari xonaqohda pichoqlab ketishgamuvaffaq bo’lishibdi” (M.Mansur, “Judolik diyori”)

Axiyri, jar yoqasidagi bir maydonchaga chiqib bordik. Sultonmurod aka ot tizg’inlarini tortib, arava to’xtar-to’xtamas, ustidan sakrab tushdi.

Nihoyat, oq-oppoq bo’lib, nim zangori(zar uqasiyambormi-ey) ro’molda(ikki uchini ikki yelkalaridan oshirib tashlagancha) ravon eshidiga ayol kishi ko’rindi. (M.Mansur, “Judolik diyori”)

O’zbek tili naqadar so’zlarga, ibora jumlalarga boy tilki, hayratlanishning o’zig xos kuchliroq darajasini ifodalashda badiiy asarlar tarkibida “Yopiray!” kabi noodatiy so’zni uchratishimiz modallik kategoriyasining o’zbek tilida ham naqadar boyligini va serqirra ko’rinishga egaligini e’tirof etadi.

“- Yopiray! Hammamiz bir avlod, bir urug’ deign?- dedi akam ang-tang qolib. – Qanaqasiga sizlar?.....” (M.Mansur, “Judolik diyori”)

Gapdan anglashilga fikrga afsuslanish, achinish kabi ma’nolar munosabatini anglatish uchun quyidagi misolni ko’rib chiqisgimiz mumkin:

“Sen suzib ketding. Qilibekning kelishini kutib turmading. Afsus, ming afsuski, Qilibekning kelishini kutib turmading. Nega sen yo’ldan chopib bora qolmading.” (Ch. Aytmatov, “Oq kema”)

Ushbu misolga diqqat bilan nazar solib tadqiq qilsak, modallik ma’nosining kuchli bir ko’rinishini namoyon qilayotganini ko’rishimiz mumkin. Buni aniqlashda, bizga afsuslanish, attang qilish ma’no munosabatini anglatishda qo’llanilgan afsuski so’zinining qo’llanilishidan tashqari, leksik takror orqali ham modal ma’no anglashilganligini guvohi bo’lamiz. Bunda so’zlovchining kuchli afsuslanganlik munosabati takror qo’llanilgan afsus so’zining ketma- ket kelishi, bundan tashqari ma’no kuchaytiruvchi denotativ ma’noda qo’llangan ming so’zining modal so’z oldidan kelishi, gap ma’nosining kuchli ifodalanishiga sabab bo’lyapti. Leksik takrorning misoli sifatida esa “Qilibekning kelishini kutib turmading” gapining takror takror ishlatilganini keltirishimiz mumkin.

Ingliz tilida xuddi shu ma’noda, afsuslanish, attang, hayrat ma’nolarini ifodalashda Finally, Surprisingly, unfortunately, fortunately, it’s a pity....leksik vositalarni misol qilib o’tishimiz mumkin.

“Unfortunately, my calculations do not agree with yours.”

Unfortunately, the morning was drizzly, and an angel couldn’t have concealed the fact that Barnard was shedding the sooty tears outside the window, like some weak giant of a Sweep.

“Finally, I remember, that when I got into my little bedroom, I was truly wretched, and had a strong conviction on me that I should never like Joe’s trade.” (Ch.Dickens, “Great expectations”)

Gapda ifodalangan ma’noning mazmuniga nisbatan ketma-ketlik, xusuiylik, kabi o’zaro ma’no-munosabatini ifodalovchi modal so’zlar tarkibiga, xususan, avvalo, dastlab, masalan, aksincha, jumladan, binobarin, darvoqe kabi so’zlarni kiritamiz:

“Avvaliga ko’nikolmay yurdim-u, keyin o’zimgayam yoqib qoldi. To’g’ri-da, avvalo men undan roppa-rosa bir yarimoylik kattaman. Qolaversa, bari-bir uylanamnku, Sen desa yarashmaydi-da...” (O’.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”)

“..Kantuz degani shuki,ya’ni, masalan, birov qulog’ingni tagida varanglatib miltiq otdi. Garang bo’lib qolasanmi? Ana o’shanaqa-da” (O’.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”)

Birinchi keltirilgan misolda, avvalo va qolaversa modal so’zlar fir ketma-ketligi, davomiyligi ma’nolarini anglatish uchun qo’llanilayotganini anglash qiyin emas. Ikkinchchi misolda esa “masalan” so’zi, o’zidan oldin keltirilgan fikrning ma’nosini

izohlab, tushuntirish, aniqlik kiritish uchun ishlatalganlik ma'nosini anglatyapti.

Kimdir birovni chaqirdi, kimdir unga javob qaytardi. Dastlab, bolaga shunday tuyulganday bo'ldi. Shunday paytda qorovulxonaga kim ham kelardi?

Shofyorlar yana bir bor xayrlashishdi. Mashinalar qo'zg'aldi. Dastlab, asta-sekinlik bilan, keyin tezlashib ketdi. (Ch. Aytmatov, "Oq kema")

"Darvoqe, yolg'iz o'zingga gapim bor edi. Xatga qo'sholmadim. Har xachir ot sanalmaganidek, har begonadan do'st chiqmas. Afsus, bizning do'stligimiz uzoqqa cho'zilmadi. Duolarmizda unutmaylik."

Ingliz tilida xuddi shunday ketma-ketlik, davomiylik, ta'kidlash, izohlash ma'nolarini ifodalash uchun, firstly, at first, then, before, therefore, after all, moreover, for instance, meanwhile kabi bir qator birikmalar qo'llaniladi.

".... Now, I thought very well of it, for three reasons I'll give you. That is to say: Firstly, it's altogether out of all your beats, and is well away from the usual heap of streets great and small."

"Firstly, my mind was too preoccupied to be able to take in the subject clearly. Secondly, - Yes! Secondly, there was a vagueness something lingering in my thoughts that will come out very near the end of this slight narrative."

"Moreover, he was a boy whom no man could hurt; an invulnerable and dolging serpent, who when chase into a corner, flew out again between his captor's legs, scornfully yelping." (Ch. Dickens, "Great expectations")

O'zbek tilida odamlar orasidagi muloqotda, so'zlovchining bildirilayotgan fikrga hayrat, afsuslanish, ajablanish kabi munosabatlarini ifodalashda yuqorida ko'rsatilgan misollardan tashqari, Subhanolloh, Mashaallah, Astag'furillah, kabi so'zlar, biror ishni boshlashdan avval esa, yaxshi niyat ila Bismillah kabi Alloohni zikr qiluvchi so'zlar keng qo'llaniladi. Bundan ko'rinish turibtiki, O'zbek millatining lingvomadaniy o'ziga xosligida islom dinining o'rni beqiyos.

Muhokama. Tilshunoslik sohasida o'ziga xos beqiyos o'ringa, serqirra va sermazmun mohiyatga ega bo'lган modallik kategoriysi inson muloqotining, kommunikatsiyasining ajralmas qismi ekanligi, olimlarning shu sohada qilayotgan tadqiqotlarida o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Modallik tushunchasi so'zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi kategoriya sifatida qaraladi. Bunda obyektiv voqelik avvalombor, so'zlovchi ongida paydo bo'ladi, undan keyin uning bildirilayotgan fikrga nisbatan ishonch-ishonchsizlik, taxmin, gumon, shubha kabi munosabatlari anglashiladi. Modallik kategoriysi haqida gap ketganda dictum va modus kabi ikki tushuncha haqida so'z olib bormaslikning iloji yoq. Diktum o'z tarkibiga obyektiv modallikni olsa, subyektiv modallik modus tarkibiga krishini bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarida tavsiflab o'tishgan. Ushbu maqolada ochib berish maqsad qilingan ingliz va o'zbek tillaridagi modallik kategoriyasining o'ziga xos va o'xshash jihatlari yetarlicha misollar bilan ko'rsatib berihsga harakat qilindi. Bu ikki bir biriga qardosh bo'limgan tillarda modallik kategoriyasining ifodalananishida o'ziga xos o'xshashliklar ham yo'q emas.hatto, bildirilayotgan fikrga nisbatan so'zlovchining ishonch, aniqlik, afsuslanish munosabatlari bu ikki tilda tarjimaviy ekvivalentlar yordamida birma bir to'g'ri kelishi ham hayratlanarli emas. Gap qurilishida ushbu ,modallik kategoriyasini tavsiflashda, aynan kirish so'zlarini tahlil qilishdan foydalanganim sababli, berilgan so'zlarning gapda grammatik jihatdan hech qanday vazifaga ega emasligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot natijasida olingan tahlillar, chog'ishtirma tilshunoslik sohasida, ilm ravnaqiga, aynan modallik kategoriyasining yanada mavhum jihatlarini ochib berishda turtki bo'luvchi manbalardan biri bo'lib hisoblansa ajab emas.

Xulosa. Gapning asosiy mazmuniga, so'zlovchining maqsad-munosabatini bildirishda, anglatishda katta ahamiyatga ega modallik kategoriysisiz nutqimizni,

muloqotimizni to'laligicha tasavvur eta olmaymiz, buni yuqorida berilgan misollar, ma'lumotlar, tahlillar yordamida ham guvohi bo'ldik. Tilshunoslikda hozirgi kunda dolzarb o'rinnegallayotgan, ahamiyatga molik kategoriya sifatida olimlar tomonidan e'tirof etilayotgan kategoriyaning turli tillarda tadqiq qilib, chog'ishtirib tahlil qilish, bizga tillarning lingvio-madaniy xususiyatlarni qayta kashf etish, til imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkonini beradi. Biz ushbumaqolamiz orqali, modallik kategoriysaoning turli nutq vaziyatlarida turlicha ifodalanishi, turli leksik vositalar orqali gap mazmuniga so'zlovchi munosabatini anglatuvchi vosita ekanligini misollar bilan ko'rib chiqdik, tahlil qildik. Tilshunoslikning ushbu serqirra kategoriysi ichiga kirgan sari, uni turli jihatdan tatbiq qilib o'rgangan sari ushbu sohada yangidan-yangi ma'lumotlar, tadqiqotlar ko'paygan sari kelajakda qilinadigan ilmiy tadqiqotlar uchun kerakli va noyob manbalar sifatida o'zbek tilshunosligida o'z o'rnini egallaydi degan umiddamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6t-T., 2000
2. Balli Sh. Yazyk i zhizn' (Language and life), Moscow, 2003
3. Halliday M.K. System and function in language: Selected papers. Ed. bu G.R. Kress, London: Oxford Univ.Press, 1976
4. Krasnova T. I. Sub»ektivnost' – modal'nost' (Subjectivity is a modality), Saint-Petersburg: Izd-vo Sankt-Peterburgskogo gosud. un-ta ekonomiki i finansov, 2002
5. Panfilov V. Z. Grammatika i logika (Grammar and Logic), Moscow, 1963
6. Brunot F. La pensée et la langue: Methode, principe et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français, Paris: Masson, 1965
7. Boimirzaeva S. Matn modalligi (Text modality), Tashkent: Fan, 2010
8. Yoqubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari (Semantic features of the representation of the modality category in logic and language), Tashkent: Fan, 2005
9. Axmanova O.S . "Lingvistik terminlar lug'ati", Moskva, 2010
- 10.M.M.Jo'rayeva . "Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv,milliy-madaniy xususiyatlari" f.f.doktorlik dissertatsiyasi avtoreferat, 2017
11. O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi", Yangi asr avlod., Toshkent-2016
- 12.M.Mansur "Judolik diyori" ., Sharq., Toshkent-1998
13. Ch.Aytmatov "Oq kema" Asil Rashidov tarjimasi
14. Ch.Dickens "Great expectations" ebook, most recently updated 2023
15. John Green "The fault in our stars"